



THE IMPACT OF IDEOLOGICAL PROCESSES ON STABILITY IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Iroda Makhmudkhanovna Muxitdinova
Researcher at the National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, ideology, stability, threat, spiritual security, information technologies, ideological immunity.

Received: 01.07.25

Accepted: 02.07.25

Published: 03.07.25

Abstract: This article examines the impact of globalization processes on the ideological sphere, as well as aspects that may either promote or disrupt social stability. Ideology plays a central role in shaping ideas, perspectives, and values within society. In the context of globalization, strengthening national ideology, ensuring cultural security, and instilling positive ideas into the minds of youth have become critically important. The study highlights modern forms of ideological processes, the influence of information technologies on these developments, and strategies for counteracting ideological threats.

GLOBALLASHUV DAVRIDA MAFKURAVIY JARAYONLARNING BARQARORLIKKA TA'SIRI

Iroda Maxmudxanovna Muxitdinova
O'zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globallashuv, mafkura, barqarorlik, tahdid, ma'nnaviy xavfsizlik, axborot texnologiyalari, mafkuraviy immunitet.

Annotatsiya: ushbu maqolada globallashuv jarayonlarining mafkuraviy sohaga ta'siri hamda bu jarayonning ijtimoiy barqarorlikka olib kelishi yoki uni izdan chiqarishi mumkin bo'lgan jihatlar tahlil qilinadi. Mafkura jamiyatda g'oya, qarash va qadriyatlarni shakllantirishda asosiy ro'l o'ynaydi. Shu sababli globallashuv sharoitida milliy mafkuraning mustahkamligi, madaniy xavfsizlikni ta'minlash, yoshlар ongiga ijobiy g'oyalarni singdirish muhim masalaga aylanmoqda. Tadqiqotda mafkuraviy jarayonlarning zamonaviy ko'rinishlari,

axborot texnologiyalarining bu jarayonga ta'siri, hamda mafkuraviy tahdidlar va ularga qarshi kurashish strategiyalari yoritilgan.

ВЛИЯНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ НА СТАБИЛЬНОСТЬ В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Ирода Махмудхановна Мухитдинова

Исследователь Национального университета Узбекистана
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, идеология, стабильность, угроза, духовная безопасность, информационные технологии, идеологический иммунитет.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние процессов глобализации на идеологическую сферу, а также анализируются аспекты, способствующие как обеспечению социальной стабильности, так и её нарушению. Идеология играет ключевую роль в формировании идей, взглядов и ценностей в обществе. В условиях глобализации важное значение приобретает укрепление национальной идеологии, обеспечение культурной безопасности и внедрение позитивных идей в сознание молодёжи. В исследовании освещаются современные формы идеологических процессов, влияние информационных технологий на эти процессы, а также стратегии противодействия идеологическим угрозам.

Kirish

Hozirgi davrda xalqaro maydonda globallashuv jarayonlari tobora chuqurlashib bormoqda. Buning natijasida turli salbiy ma'naviyatga nisbatan bo'layotgan tahdidlar ortib bormoqda. Hozirgi globallashuv davrida ma'naviy tahidilar, dunyoning mafkuraviy manzarasi jamiyatning barcha sohasini qamrab olmoqda. Bugungi dunyoni egallah uchun oldingidek turli hil to'qnashuvlar emas balki tinch urushlarsiz g'oya va mafkuralar orqali egallahsha urinmoqdalar va bunda yoshlar dunyoqarashini egallahda internet va axborot resurslaridan keng foydalanishmoqda. Endilikda biror bir davlatni egallahda turli xil qurollar bilan emas balki g'oyalar bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda eng qimmat tovar sifatida g'oya o'zining ahamiyatini oshirib bormoqda. Bu yo'lida axborot resurslaridan davlatlararo to'qnashuv, geosiyosiy maqsadlarga erishi uchun maydon sifatida faol foydalanmoqda. Bunday sharoitda milliy manfaatlarimizni himoya qilishda axborot omili ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi zamon demokratik andozalarga mos, milliy qadiyatlarimizni himoyalashga yo'naltirilgan kuchli axborot siyosatini yuritishni taqazo qilmoqda.

O‘zbekistonning mustaqillikning qo‘lga kiritgan dastlabki yillaridanoq taraqqiyotning demokratik yo‘lini tanlashi haqiqatga xosdir. Umuman olganda, demokratiyaning mezonlari ko‘p, lekin ularning eng asosiysi jamiyatda ochiq axborot makoni yaratilishi bilan o‘lchanadi. Ya’ni jamiyatning axborolashib borishi muqarrar jarayonga aylanadi. Axborotlashib borayotgan jamiyat dunyoga yuz tutadi. Globallashayotgan axborot davrining bosh xususiyati shundaki, axborot oqimi uchun to‘sinq, chegara yo‘qoldi. Dunyo axborot makoni an’anaviy axborot chegaralarini, milliy o‘ziga xosliklarni, xar bir davlat o‘ziga xos va o‘ziga mos turmush tarzi, sharoiti, imkoniyati vaxakazolari borligi bilan hisoblashmay ularni barini o‘z domiga tortmoqda. Vaholanki har bir davlat mustaqil va unda jamiyat va shaxs manfaatlari bor, qolaversa, xech kim milliy manfaatlaridan voz kechgani yo‘q. Sarhad bilmas internet tarmog‘ining rivojlanishi dunyoning istalgan hududidagi davlat aholisining dunyoqarashini parokanda qilish, chalg‘itish, sog‘lom yo‘llardan adashtirishi mumkin bo‘lgan katta kuchni keltirib chiqaradi. Aholining keng qatlamini ana shu kuya solish, bu orqali jamiyatni izdan chiqarish va pirovardida, davlat taqdirini xavf ostiga qo‘yish, ayniqsa, rivojlanishning dastlabki bosqichlarida yashayotgan yosh davlatlar oldiga o‘ta jiddiy, o‘ta dolzarb muammolarni ko‘ngdalang qo‘ymoqda.

Asosiy qism

Zamonaviy insoniyat jamiyatida axborot o‘zlashtirilgan sari faqat ortib boruvchi yagona zahiraga, mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy birlikka aylanib bormoqda. Bugungi kunda axborot uzatish hamda qabul qilishning yangi vositalari ommalashgan sari axborotning alohida olingan odam va butun jamiyat hayotidagi roli tobora ortayotgani kuzatilmoque. Har qanday axborotni qisqa vaqt ichida dunyoning istalgan burchagiga yetkazish imkoniyati paydo bo‘lgach axborot-psixologik ta’sirini amalga oshirish geosiyosiy va iqtisodiy maqsadlarga yetishishning nihoyatda qudratli quroliga aylanib qolganin isbotlovchi misollar kundan kunga ortib bormoqda. Bunday sharoitda odamlar ongini destruktiv mazmundagi ya’ni odamlarni noadekvat harakat qilishga undaydigan, ularni kuchli ma’naviy quvvat manbalaridan maxrum etadigan axborotdan himoya qilish muammosi har qaysi zamonaviy davlat uchun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda jahon geosiyosatida geostrategik kuchlar muvozanatining o‘zgarishi, ko‘p qutbli markazlar yuzaga kelishi, ular orasidagi raqobat hamda ayrim davlatlarning dunyo hukumronligi uchun ochiqdan-ochiq da’volari yangi mustaqil davlatlarda jamiyatni erkinlashtirish va huquqiy demokratik davlat qurish jarayoniga, milliy mintaqaviy xavfsizlikni ta’minalashga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu geosiyosiy raqobat oqibatida halqaro xavfsizlikning yangi noan’anaviy tahdidlari: xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, va fundamentalizm, narkobiznes, noqonuniy qurov savdosi vujudga kelishi kuzatilmoque. Mazkur tahdidlar esa zamonaviy halqaro munosabatlar tizimidagi globallashuv va integrasiyalashuv natijasida kundan-kunga milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikka xavf solmoqda. So‘ngi

davrlarga kelib, geosiyosiy vaziyatning o‘zgarishi hamda raqobat kuchayishi natijasida yuqorida ko‘rsatilgan omillardan tashqari ilgari kuzatilmagan tahdidlar yuzaga kela boshladi.

Terrorizm – lotinchadan qo‘rquv, daxshat degan ma’noni anglatadi. Yuksak ma’naviy tamoyillarga zid ravishda yovuz maqsadlar yo‘lida kuch ishlatiб odamlarni garovga olish, o‘ldirish, ijtimoiy obyektlarni portlatish, xalqni qo‘rquv va vaximaga solishga asoslangan zo‘rovonlik usulidir. Qo‘rqtish xukmini o‘tkazish orqali ular o‘z xukmuni o‘tkazishga xarakat qiladilar.

Ektremizm – siyosatda ashaddiy kurash va choralarga moyillik. Ektremizmni vujudga keltiradigan omillar juda ko‘p. Ularning o‘rtasida bir tuzumdan ikkinchi bir tuzumga o‘tish davrida yuz beradigan ijtimoiy tuzilmalarning buzilishi, aholi katta guruxlarining qashshoqlashuvi, ijtimoiy, iqtisodiy kabi tangliklarni ko‘rasatish mumkin. Ekstremizmning asosiy maqsadi dinni o‘zlariga niqob qilib, odamlar o‘rtasida qo‘rquv uyg‘otib yoshlarni ongini zaharlash orqali davlat xokimiyatiga intilishadi.

Fundamentalizm – biror ta’limot aqidalarning, iloxiy kitoblardagi ta’lmotlarning dastlabki, sof xolatini saqlab qolishni astoydil ximoya qiladigan, ularni majoziy ma’noda rad qiladigan ijtimoiy mafkuraviy diniy qarashlar majmuini anglatuvchi ta’limot. Fundamentalizmدا qur'on xadislari ko‘r-ko‘rona talqin etiladi. Ammo ularning maqsadlari umuman boshqa. Ular din niqobi ostida siyosiy xokimiyatga ega bo‘lish uchun intiladiganlar tomonidan o‘ylab topilgan. Hozirgi kunda insonlar, yoshlarning ongini egallash orqali davlatning siyosiy barqarorligini izdan chiqarishga intiladilar. XX1 asrda qaysi davlatning g‘oyasi kuchli bo‘lsa o‘sha davlat g‘alaba qozonadi. Bu jarayonda milliy g‘oyaga ehtiyoj ortib boradi. Milliy o‘zining fnksiyasini har qachongidan ham kuchliroq bajarishi talab etiladi.

Globbashuv jarayonlarida G‘arb davlatlari tomonidan Sharq davlatlariga o‘zlarining g‘oyalari ekport qilinmoqda. Ya’ni ayrim G‘arb davlatlari tomonidan o‘z milliy manfaatlarini kengaytirishda “demokratiya eksporti”, siyosiy va axborot xuruji asosiy vositaga aylanmoqda. Globallashuv jarayonini bevosita axborot bilan bog‘liq ekanini tushunish qiyin emas. Mutaxassislarning ta’kidlashicha Hozirda axborot iqtisodiyotning eng serdaromad manbaiga aylanib bormoqda. AQSh strategik taddiqotlar instituning ma’lumotlariga ko‘ra, axborot maxsulotiga sarflangan har bir dollar, yoqilg‘i eneoregetika sohasiga sarf qilingan har bir dollardan ko‘ra bir necha barobar ko‘p foyda berar ekan. Bu faqat uning iqtisodiy jihat, uning siyosiy jihat esa o‘z shaxsiy manfaatiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham mustaqil O‘zbekistonning shunday mafkuraviy kurashlar davrida yoshlarning ongini o‘z milliy g‘oyasi, qadriyat, an’analari bilan to‘ldirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, mana shunday turli hil yod g‘oyalarning ta’siriga tushib qolmaslik hamda yurtimiz kelajagining rivoji aynan mana shu yoshlar qo‘lida

ekanini hyech qachon unutmaslik zarurdir. Hozirgi dunyoning mafkuraviy manzarasi mafkuralar kurashlar o‘rtasida ayovsiz janglar bormoqda.

Bugungi kunda xavfsizlik eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Millatlar mavjud ekan ular o‘rtasida o‘zaro munosabatlар ham bo‘ladi. Millatlararo totuvlik g‘oyasini amalga oshirishga g‘ov bo‘ladigan eng xatarli to‘siq tajovusskor millatchilik va shovinizmdir. Hozirgi kundagi o‘zaro kelishmovchiliklar davlatlararo emas, davlatning ichidagi muammolar bilan bog‘liqdek ko‘rinadi. Aslida davlatning ichki muammolariga daxldor bo‘lib ko‘ringan konfliktilar mintaqaviy yoki umumbashariy xarakterga ega. Chunki qarama-qarshiliklarni xarakterga kirituvchi kuchlar faoliyati tashqi omillar bilan bog‘liq. Buning sababi jamiyatga sezilarli ravishda kirib kelayotgan globallashuv jarayonlari bilan uзвиy bog‘liq. Globallashuv jamiyatdagi mavjud va potensial ko‘rinishga ega bo‘lgan siquv va taxidlarni kamaytirishni o‘ziga olmagan. Aksincha, “Globallashuv umumbashariy xavf-xatarlarni safiga yangilarini qo‘shilishidan davom etib kelayotgan qarama-qarshiliklarning qaytadan yangi ko‘rinishlarda sodir bo‘lishidan boxabar etadi”[1]. Globalizm o‘zgarib borayotgan jamiyatda svilizasiyalararo munosabatlarni taxlil etib sivilizasiyalar asosini tashkil etuvchi milliy qadriyatlarning zaiflashuvini qanday oqibatlarga olib kelishidan insonlarni voqif etadi. Bunday sharoitda millatlarning o‘z milliy qadriyatlariga sodiq qolishi va uni yanada boyitishga intilishi kuchayishi hamda millat va elatlarning o‘zligini anglashga milliy an’analarini saqlab qolishlari uchun amaliy xarakatlar qilishni taqazo etadi. Globallashuv sharoitida davlatlarning millatchilik va umuminsoniy qadriyatlarga qarshi bo‘lgan har qanday ko‘rinishlarga qarshi kurashishi, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashi va rivojlantirishi jamiyatdagi geomafkuraviy kuchlar ta’siri doirasiga tushib qolmaslik uchun muntazam kurash olib borish zaruriyatini tug‘diradi.

Bu borada O‘zbekiston ham mustaqillikni ilk yillaridan boshlab “O‘zbekistonni milliy rivojlanish konsepsiysi”ni ishlab chiqdi va amaliyatga tadbiq etdi. Geomafkuraviy kurashlar davrida jamiyatning ravnaq topib borishi davlatdagi milliy-etnik guruxlar o‘rtasida hamjihatlik va milliy g‘oyasini takomillashib borishini taqazo etadi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda millatlararo munosabatlар va o‘zaro do‘stlik aloqalariga juda katta etibor qaratilmoqda. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ishlab chiqildi. Taraqqiyot strategiyasining 5-ustuvor yo‘nalishi “Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatic va faol tashqi siyosat olib borish” ga yo‘naltirilgan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad axborot xavfsizligini ta’minalash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish va axborot soxasidagi taxdidilarga o‘z vaqtida munosib qarshilik ko‘rsatish hamda fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlashdan iborat. Bunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Millatlararo munosabatlар va xorijiy

mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni qabul qilindi.

Ma'lumki bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezungilik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo mos bo'lgan va uning mintaliteti asosini tashkil etadi.[2] O'tgan tariximiz shundan dalolat beradiki oliyjanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan biri hisoblanadi. Muxtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev millatlararo munosabatlarni yaxshilash maqsadida "O'zbekiston mintaqamiz davlatlari bilan ochiq o'zaro manfaatli va yaqin hamkorlikni kengaytirishva mustaxkamlashga tayyor ekanini yana bir bor qayd etishi zarur deb bilaman. Bu bizning tashqi siyosatimizning asosiy yo'nalishlaridandir"[3] - degan edi.

Biz avvalo, yet mafkuraviy g'oyalar ta'siriga tushib qolmaslik uchun yoshlarimizni ona Vatanga muxabbat, sadoqat ruxida tarbiyalashimiz, yurtimizda yashayotgan turli millat va elatlarning o'zaro do'stona va axil bo'lib yashashlari, millatlararo munosabatlarni yanada yaxshilashga erishishimiz kerak. Mustaqillikni ilk yillardan boshlab Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ham bu masalaga juda katta e'tibor qaratgan. Buyuk davlatchilik, gegemonizmni va agressiv millatchilik jamiyatga juda katta xavf tug'diradi. Bu borada bugungi kunda ham juda katta ishlarni amalga oshirilmoqda. Zero bu borada boshqa xalqlarni kamsitib va ularni erkinliklarini cheklab, o'z xalqiga, millatiga farovonlik yaratib bo'lmasligini yaxshi tushingan holda O'zbekistonda barcha fuqarolar tengligi asosiy qomusimiz Konstitusiyamizda ham belgilab qo'yilganligini va milliy g'oyani asosiy tamoyillaridan biri millatlararo totuvlik deb nomlanishi bu soxaga qanchalar e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekistonda millatlararo munosabatlarni ta'minlash maqsadida Respublika baynalminal madaniyat markazlar tashkil etilgani va ularning soni Hozirgi kunda O'zbekistonda 137 ta milliy madaniyat marazlari faoliyat yuritmoqda. Yurtimizda "O'zbekiston umumiy uyimiz" shiori ostida festevallar amalga oshirilib kelayotgani O'zbekistonda millatlar o'rtasida tinchlik va totuvlikni ta'minlanganligidan dalolat beradi.

Darhaqiqat, tahdidlarning manbalari haqida chuqur mushohada yuritsak, g'ayriinsoniy va g'ayrimilliyl qurolining milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona ekani hamda sayyoramizni ostun ustun qilib yuborishga qodir ekanini ko'ramiz. Ayni haqiqat, bugungi davr shiddati dunyoning ayrim davlatlaridagi mojaroli holatlar, halqaro miqyosdagi dolzarb masalalar va muammolarning zamirida turli hil usul va uslublardagi, yashirin va oshkora tusdag'i mafkuraviy tahdidlar turgani ayon. Mafkurviy tahdidlarga qarshi kurashda assosiy maqsadimiz jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish ekan, birinchi navbatda, milliy g'oyani fuqarolar ongi va qalbiga chuqur singdirishga erishishimiz kerak. Aholida, ayniqsa yosh avlodda sog'lom e'tiqodni shakllantirish, ular orasida

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘un ravishda targ‘ib etish ham muhim ahamiyatga ega. Umuman, fuqarolarning bilimi va tafakkurini yanada oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlarini izchil amalga oshirib boraversak, har qanday tahdidlar bizga xavf solaolmaydi.

Natijalar. XX asrning ikkinchi yarmida butun jahonni larzaga solgan global muammolar hozirda ko‘plab olimlarning tadqiqot markazidadir. Global muammolar mohiyat - mazmuni, shakl va bosqichlariga qarab juda murakkab tizimni qamrab oladi. Jamiatning ma’naviy sohasida ham global ziddiyalar mavjudligini uning zamirida subyektlar o‘rtasidagi munosabatlarning faqat moddiy manfaatlarga asoslanganligini hurmatli Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug‘anovich Karimovning izohlarida ham uchratamiz: “Globallashuv jarayonining yana bir o‘ziga hos jihat shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta’sir o‘tkazishning nihoyatda o‘tkir quroliga aylanib har hil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog‘lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar”[4].

Ma’naviy inqirozlar, ma’naviy ta’sirlar, subyektlar orasidagi nosog‘lom munosabatlar, xilma-xil extiyojlar, manfaatlar kabi tushunchalarni o‘rganar ekanman, har vaqt atroficha tahlil etishimga zaruriyat tug‘ulgan sinergetika kategoriyasini bevosita aloqador ekanini angladim. Qizig‘i, insoniyat bir kashfiyotga erishar ekan cheksiz quvonadi, bu haqida butun dunyoga bong uradi, so‘ng nazariy tahlillar asosida amliyotda qo‘llaydi. Shuningdek, extiyojlar ketma-ket yuzaga kela boshlaydi, ular mohiyatan yo yaxshilik, yoxud yomonlikka asoslanishi mumkin. Bu insoniyatning donolgi yoki betizgin nafsga egaligidan dalolat beradi.

Ma’naviy va mafkuraviy muammolar juda murakkab hamda nozik bo‘lib: “bu masalaning kishining doim ogox bo‘lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo‘lsa, buni sezish, ko‘rish, oldini olish mumkin. Ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta’siri va oqibatlarini tezda ilg‘ab olish imkonyati qiyin.

Davlatimizda milliy ma’naviyatni o‘zlikni anglash uchun asl qadriyatlarni bilmog‘imiz taraqqiyotdan ortda qolmaslik uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanishimiz zarur. Ammo faoliyatimizga mas’ul bo‘lishimiz, yangi pedagogik texnologiya deb, qisman nisbiy o‘zgarish yasab, asida axborot yetkazish usullaridan voz kechmayotgan holatlar hamon mavjud. Har bir harakatmizni anglab, chuqur bilim asosida, qadriyatlrimizga tayanib, mentalitetni hisobga olgan holda noan’anaviy usullardan qo‘rqmay foydalanishimiz lozim. Bu onglilik darajasini o‘sishiga olib keladi. Mafkuraviy tahdidni qurol qilib olib, o‘z manfaati uchun har qanday razillikdan qaytmayogan subyektlar afsuski mavjud. Ularning harakati AQSh, Iraq, Afg‘oniston, Yaqin Sharq mojarolari, turli diniy oqimlar o‘rtasidagi keskin kurashlarning kelib chiqishi, zanjirli davom etishi, global muammolarning keskinlashuvi, uch dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi farqni kuchaytirishga sabab bo‘lmoqda. Ularning aksariyati bilib razil qadamlarni tashlamoqda va bu yo‘lda yoshlarni qurban qilishmoqda. Shu bilan aslida

o‘zlariga choh qazimoqdalar. O‘zbekiston davlatimiz xalqi bilimli, milliy qadriyatlarga sodiq, ahloqli bo‘lsa, ma’naviyati ham rivoj topadi va turli hil xurujlarga qarshi kurasha oladi.

Mafkuraviy kurashlar davrida yoshlarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash zarurdir. Yoshlarni o‘zining g‘oyasiga, o‘zining fikriga ega bo‘lgan, axborot texnologyailaridan foydalana oladigan qilib tarbiyalash zarurdir. Internet orqali kirib keladigan xar qanday g‘oyalarni tahlil qila oladigan qilib tarbiyalash zarurdir. Sababi yoshlarni har doim ham nazorat qilib axborotlarni tahlil qilib oq qoraga ajiratib bera olishni imkoniyati bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ularning o‘zida mafkuraviy iimunitetni shakllantira olsak davlatning rivojlanishiga erisha olgan bo‘lamiz. Jamiyatning hal qiluvchi qatlami bu yoshlardir. Yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib tarbiyalash hamma zamonalarda dolzarb bo‘lgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek jamiyatning emosional qismi yoshlar hisoblanadi. Shu sababdan davlatlarni egallashda ham g‘oyani aynan yoshlar ongini zaharlashga qaratidilar. Yoshlarimizni mafkuraviy kurashlar davrida ma’naviy salohiyatini kuchaytirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning o‘rni kattadir. Turli xil tadbirlar orqali yoshlarni jamiyat xayotida yuz berayotgan barcha o‘zgarishlarga va vaziyatlarga keng jalb etiladi. Ular siyosiy, ma’naviy iqtisodiy hayotdagи o‘zgarishlarga o‘zlarining fikr va maloxazalarini bildia olishi jamiyat bilan birgalikda borishi zarur. Jamiyat xayotidan uzilgan, maqsadi yo‘q, bugunim o‘tsa bo‘ldi deydigan yoshlarni kamaytirish xzarur. Unday yoshlar uyushmagan yoshlar deb ataladi. Uyushmagan yoshlar ko‘payib borishi jamyaitni tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismi yoshlarga tegishlidir. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatining yangi tahriri qabul qilinishi va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “O‘zbekiston yoshlari – 2025” konsepsiyasini ishlab chiqishi, unda ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazishning amaliy chora-tadbirlari belgilanishi zarur[5], deb ta’kidladilar. Yurtimizda yoshlarni bilim salohiyatini oshirish maqsadida va ilmiy salohiyatni kuchaytirish maqsadida ham quyidagi qaror va farmonlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-son Farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi, O‘RQ № 576-son, 2019 yil 10 oktyabrda “Ilm fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinishi bu yoshlarni ilm fanga yanada yo‘nalitirishga qaratilgandir. Hozirgi kunda davlatni rivojlantirishning yagona yo‘li bu xalqni har tomonlama ilm - saviyasini yuksaltirishga bog‘liqdir. Shu jihatlar inobatga olinib yurtimizda hozirgi kunda ilm fanga juda katta e’tibor qaratilmoqda.

Foydalanalig'an adabiyotlar ro'yxati:

1. Кашлев Ю. На передовом рубеже глобализаций. Международное информационное общество и вызовы дипломатии XXI века «Независимая газета». 28.11.2000 г
2. Муаллифлар жамоаси. 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Харакатлар стратегиясини “халқ билан мулоқот ва инсон манфаатлари” йилида амалга оширишга оид Давлат дастурини ўрганиш бўйича Илмий-услубий рисола. –Т.: 2017. 358-б
3. Мирзиёев Ш.М. Халқимиз розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. Т.;-2 жилд Ўзбекистон, 2018, 351-б.
4. Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. -Т.: Маънавият 2008.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.